



# BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHUQUR TIL ORQA QATTIQ "X" VA BO'G'IZ TOVUSHI YUMSHOQ "H" NI BIR-BIRIDAN FARQLASHGA O'RGATISH METODIKASI

Nilufar Yakubova – Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lism jarayonida hosil bo'lish o'rniga ko'ra bo'g'iz tovushi h va chuqur til orqa x harfini farqlashni o'rganish haqida fikr yuritilgan. Dars jarayonida va boshqa vaqtda yozuvda h va x ni o'zaro farqlash uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan. Bu borada o'quv jarayonida, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Fonetik usul, leksik usul, o'zakdosh so'zlarni o'rgatish orqali farqlash.

Ajdodlarimizning asriy orzusi bo'lmish istiqlol xalqimiz qaddining ko'tarilishi va ona tilimizning xalqaro miqyosda tan olinishiga imkon berdi.

O'tkazilayotgan ma'naviy va ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgani, shubhasiz. Ana shunday ko'lamli islohotlarda til masalasi favqulodda mavqega ega .

Yurtboshimiz takidlaganiday ,”.....o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.Ona tili-bu millatning ruhidir”. Istiqlol bois, ”Ona tili” darsliklarining yangi avlodni yaratildi. 5 jildli yangi izohli lug'at chiqarildi. “O'zbek tilining imlo lug'ati kirill va lotin alibbosida chop etildi. Shunday yutuqlarga qaramasdan, bugungi kun til ta'limi jarayonining ayrim muammolari ham uchrab turibdi. Ko'chalarda, bino peshtoqlarida “Dorihona”(Dorixona),”Kuz sahovati”(Kuz saxovati), ”Boburshox“ minimarketi kabi yozuvlar fuqarolarimiz h va x harflarini yetarlicha farqlay olmasliklarini ko'rsatsa, o'quvchilarning matnlarida ham shunday holatlar ko'plab uchrab turibdi. O'quvchilar dars jarayonida hatto diktant,bayon va insho yozishda ham h va x harflarini yozishda xatolikka ko'p yo'l qo'yadilar.



Bahsli “x” va “h” harfli so‘zlar imlosi haqida gapirganda, masalani to‘g‘ri anglash uchun, avvalo, kirill adifbosidagi holatlarni ham ko‘rib o‘tish lozim. Kirill alifbosida bu ikki tovushni ifodalash uchun bir-biriga shaklan yaqin ikki harf qabul qilingan. Bu shaklan o‘xshashlik ayrim sheva vakillari nutqida ikki tovushni bir-biridan farqlamaslikka, yozuvda ajrata olmaslikka olib keladi.

Natijada esa ularni birlashtirishga harakat qilishadi. Aslida, unday emas. Chunki mazkur tovushlar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra butunlay boshqa-boshqa tovushlar hisoblanadi.

“x” tovushi o‘zbek adabiy tilida og‘iz bo‘shlig‘ida yuqori tanglayda hosil bo‘ladi. “h” esa bo‘g‘izda hosil bo‘ladigan tovush.

**O‘zbek tili haqida dars o‘tilayotganda mazkur tovushlarni yumshoq (h) va qattiq (x) deb tushuntiramiz, lekin bu noto‘g‘ri yondashuv.** Sababi — o‘zbek adabiy tilida yumshoqlik va qattiqlik hodisasi yo‘q, shuning uchun aslicha tushuntirgan ma’qul.

O‘rganuvchini qiyaydigan narsalardan biri kirill yozuvidagi shaklan (x, x) o‘xshashlikda. Shu boisdan ko‘z ko‘nikmasi va talaffuz bir-biriga yaqinlashib qoladi.

O‘zbek-lotin alifbosida bu masala oqilona hal etilgan. Bo‘g‘iz tovushi uchun “Hh” harfi, qattiq tanglayda hosil bo‘ladigan, chuqur til orqa tovushi uchun esa “Xx” harfi qabul qilingan.

O‘zbek tilida bu tovushlar fonologik vazifa bajaradi, ya’ni so‘zlar ma’nolarini tubdan o‘zgartiradi. Agar bu o‘rinda bir harfda xato qiladigan bo‘lsak, so‘zni noto‘g‘ri ishlatgan bo‘lib qolamiz. Masalan,

xam - ham;

xil-xil - hil-hil;

xush - hush;

xirs - hirs kabi.

Yuqoridagi qatorlarda keltirilgan so‘zlarda bu ikki tovush bir-biriga yaqindek ko‘rinadi, lekin aslida, unday emas, ulardagি ma’nolar butunlay farq qiladi.

Xam: boshni xam qilmoq - boshni egmoq; ham: yuklama.

Xil-xil: turli, turfa, xilma-xil; hil-hil: maromida pishgan.

Xush: yoqimli; hush: ong, shuur, aql.



Xirs: ayiq; hirs: biror narsaga rag'bat.

“x” va “h” harfi qatnashgan so‘zlarni yozish juda ham murakkab emas. Ikkilanadigan o‘rinlar bo‘lganda, albatta, imlo lug‘atlariga murojaat qilish kerak.

O‘zbek tilidagi “x” va “h” harfli so‘zlarning boshqa tillarda qanday yozilishi masalasi ham bor. Bunda, “x” harfi “kh” shaklini olsa, “h” o‘zgarishsiz qoladi:

Хива, Xiva – o‘zbekcha; Khiva – inglizcha.

Бухоро, Buxoro – o‘zbekcha; Bukhara – inglizcha.

Шахрисабз, Shahrисабз – o‘zbekcha; Shahrisabz – inglizcha.

H va X harflarini farqlash uchun nimalarni bilish lozim? Qanday yo‘l bilan savodxonlikka erishish mumkin? Quyida H va X undoshlarini farqlash yo‘llari haqida fikr yuritamiz.

### 1. Fonetik usul.

Bu usulga ko‘ra **h** va **x** undoshlari talaffuz ettirish orqali farqlashga o‘rgatiladi. Buning uchun bu undoshlar og‘iz bo‘shlig‘ining qaysi o‘rinlarida hosil bo‘layotgani tushuntiriladi. **H** undoshi bo‘g‘izda hosil qilinadi. Og‘iz bo‘shlig‘idagi boshqa a’zolar tovush hosil qilishda ishtirok etmaydi.

Masalan handalak, handasa, hovuz va hokazo.

**X** undoshi talaffuz qilganda tilning orqa qismi biroz ko‘tarilib, tanglayga tegadi. Shuning uchun bu undoshni chuqur til orqa undoshi deyiladi.

Masalan baxt, xayol, paxta va hokazo.

### 2. Leksik usul

Bu usulda so‘zlarning ma’nolarini qiyoslash orqali **h** va **x** undoshlarini farqlashga o‘rgatiladi.

Masalan, hol-xol

Hol-hol-ahvol. Insonning holati, salomatligi. Hol-ahvolingiz yaxshimi? – so‘radi yo‘lovchi. Xol – inson badanidagi qora dog‘.

Malikaning o‘ng yuzida xoli bor edi.

Hil-xil

Hil – ezilib pishgan.



Shaftolilar hil-hil pishibdi.

Xil – tur ma'nosida qo'llaniladi.

Gulzorga turli xil gullar ekildi.

Har-xar

Har so'zi kim? nima? qaysi? qanday? so'roq olmoshlari bilan qo'llanganda belgilash olmoshini hosil qiladi. Bir, narsa, nima, yer so'zlari bilan ham qo'llanadi.

Har yerni qilma orzu, ...

Xar – fors-tojik tilidan kirgan bo'lib eshak ma'nosini bildiradi.

Birlari mo'ltoninamo, hiylagar,

Birlaridir kunda pix-u gavda xar

(Muqimiy "Tanobchilar")

Ham-xam

Ham – yordamchi so'zlarning bir turi, yuklama.

Ovchilar ikkovini ham tutib olishdi.

Xam – fors-tojik tilidan o'tgan. Boshni egmoq ma'nosini bildiradi.

Olim bu gapni eshitib boshini xam qildi.

Hiyla-xiyla

Hiyla – ayyorlik, nayrang ishlatish.

Suhaylni jangda yengolmagan Jobir hiyla ishlatishga majbur bo'ldi.

Xiyla – ravish, picha, biroz ma'nosini bildiradi.

Yuk xiyla og'ir edi.

Shoh-shox

Shoh – davlat boshlig'i, hukmdor.

O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l.

Shox – daraxt shoxi.

Yerda mayda-chuyda shoxlar sochilib yotardi.

**O'zakdosh so'zlarni o'rgatish orqali farqlash.**



Arab tilidan o'zbek tiliga juda ko'p so'zlar kirb kelgan. Bu so'zlarni quyidagicha o'rgatilsa, bola yodida uzoq saqlanib qoladi. O'zbek tilida ko'pnlikni –lar orqali hosil qilinadi. Masalan, o'zbek tilida: kitob birlikda, kitoblar ko'plikda; arab tilida:

### Birlik Ko'plik

xulq axloq(xulqlar)

xabar axbor(xabarlar)

hol ahvol(hollar)

habib ahbob(do'stlar)

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar orqali farqlash.

Bahr, bahra, bahri dil

Hajv, hajviy, hajviyat

Baxt, baxtiyor, baxt-iqbol

Jahl, jaholat, johil(jahl qiluvchi)

Madh, madhiya, maddoh(madh etuvchi)

Mehnat, mehnatkash, mehnatsevar

Mehr, mehribon, mehriyo, mehr-oqibat

Qahr, qahraton, qahr-g'azab

Rohat, rohatijon, rohatbaxsh

Xayol, xayolan, xayoliy

### 4.E unlisidan so'ng doimo h bo'g'iz undoshi yoziladi.

Ehhe, ehrom, ehson, ehtimol, ehtirom, ehtiros, ehtiyoj, ehtiyot.

### 5. I unlisidan so'ng (ihramoq so'zidan tashqari) doimo x chuqur til orqa undoshi yoziladi.

Ixlos, ixtilof, ixtiro, ixtisoslik, ixtiyor, ixcham.

### 6. Birinchi bo'g'ini is- bo'lgan so'zlarda h bo'g'iz undoshi ishlataladi.

Is-loh, is-tehkom, is-tehzo, is-tihola, is-tirohat.

### 7. J harfi bilan boshlanuvchi so'zlarda(jigarsoshta va jo'xori so'zlaridan tashqari) h undoshi yoziladi.

jabha jarohat jihod



jahannam jarroh jihoz

jahd javhar javhar

jahl javohir jahon

#### **8. Q harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarda h bo‘g‘iz undoshi yoziladi.**

Qabih – qabohat

Qahat – qahatchilik

Qah – qah

Qahqaha

Qahr

Qahramon

Qahva

#### **9. O‘zbek tiliga rus tilidan kirgan barcha so‘zlarda x undoshi yoziladi.**

kinomexanik porox

kinoxronika psixiatr

malaxit psixika

matriarxat raxit

papax texnolog

paraxod xokkey

Bundan tashqari har bir darsda h undoshi bilan yoziladigan so‘zlardan 2 yoki 4 tasi varaqqa yozilib, sinf xonasi eshigi yoki doska oldiga osib qo‘yilsa, o‘quvchilar har kuni unga ko‘zi tushib, yodda saqlab qoladilar. Bu so‘zlar bir haftada almashtiriladi.

Savodxonlikni oshirishda kitobxonlik masalasi ham juda muhim hisoblanadi. O‘quvchilarimizda kitobga bo‘lgan havaslarini, qiziqishlarini qancha ko‘p orttirsak, savodli yozadigan o‘quvchilarimiz ham shuncha ortib boradi. Chunki, kitobda ko‘rilgan so‘zlar, ularning yozilishi o‘quvchi xotirasida bus-butun holda saqlanadi, yozish jarayonida ular shu so‘zlardan foydalanadilar.

Mana shu usullardan muntazam foydalanilsa, o‘quvchilar tomonidan yodda tutilsa, daftarlardagi, ko‘chalardagi yozuvlarda imlo xatolar kamayib, atrofimizda savodxon



insonlar ko‘payadi, deb o‘ylayman. Savodxonlik esa hamma davrlarda madaniyat belgisi hisoblangan.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning til boyligini oshirish muhim sanaladi. Ayniqsa fonetik va grafik bilimlar savod o‘rgatish davridan tortib ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ham matnlar orqali qoidalarni o‘rgatish, metodik usullarni ishlab chiqish davr talabi hisoblanadi. 1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi 1-qismida “Suvning vatani” nomli matn berilgan bo‘lib, bu mavzu boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun ham o‘rganish alohida talab etadigan mavzu sanaladi. Chunki bu mavzu attestatsiya savollarini ham qamrab oldi. Natijada, o‘qituvchilar bu mavzu orqali chuqur til orqa “X” va bo‘g‘iz tovushi “H” ni o‘quvchilarga farqlashga o‘rgatishga undaydi. Matn quyidagicha:

### SUVNING VATANI

Baland tog‘lar etagida bir buloq bo‘lgan ekan. Uning suvlari toshib, irmoqqa aylanibdi. Irmoq yurgan yo‘llarda gullar o‘sar, yam-yashil o‘tloqlar paydo bo‘larkan. Odamlar, o‘simliklar, **hatto** yo‘lda o‘tlab yurgan echkilar ham unga **rahmat** aytisharkan.

Irmoqning osmonga chiqib atrofni tomosha qilgisi kelibdi. Quyoshdan yordam so‘rabdi. Quyosh uni qattiq qizdirgan ekan, bug‘lanib bulutga aylanibdi.

Bulut yurib-yurib zerikibdi. **Hech kimga** foydasi ham tegmabdi.

- Esiz , yerda maza qilib yurgan ekanman. **Hammaga** foydam tegardi - deb yig‘lab yuboribdi bulut.

Shu payt u yomg‘irga aylanibdi. Yomg‘ir suvlari yana irmoq bo‘lib oqa boshlabdi. Uni sog‘ingan barcha jonzotlar **behad xursand** bo‘lishibdi.

“Hikoyalar va ibratli so‘zlar” kitobidan

### SAVOLLAR

1. Irmoq qanday paydo bo‘ldi?


2. Unga kimlar rahmat aytisharkan? Nima uchun?
3. Nega irmoq osmonga ko'tarilishni istab qoldi?
4. Irmoqning suvi qanday qilib bulutga aylandi?
5. U nega yig'ladi?
6. Nima deb o'ylaysiz, hikoyadagi voqealarda qanday tabiat hodisalari haqida gap bormoqda?

Savollardan so'ng qoida keltirilgan.

#### QOIDA

"H" tovushi bo'g'izda, "x" esa tilning eng orqasida paydo bo'ladi.

Qoidani o'quvchilarga mazmun mohiyatini tushuntirib bergach "Klaster" metodi orqali bo'g'iz tovushi Hh va chuqur til orqa tovushi Xx harflari bilan boshlanuvchi so'zlarga misol keltirish topshirig'i o'quvchilarga berilishi maqsadga muvofiqdir.



Shundan so'ng o'quvchilar bilan ushbu harflarni bir-biridan farqlashga o'rgatish maqsadida she'r yod oldirish ham yaxshi samara beradi. She'r tarkibida "x" va "h" harflari ko'p



qo‘llangan so‘zlarni keltirish kerak. Ko‘z xotirasi orqali ham o‘quvchilar bu ikki harfni bir-biridan farqlab olishga erishiladi:

Xavfsiz bo‘lay desangiz

Har doim xushyor bo‘ling.

Hayotning har lahzasin

Kulib jilmayib o‘ting.

Baxtli bolalik degan

Bog‘larni kezing mudom

Unda o‘yin kulgu bor

Bunda yiroqdir armon.

Xat yozib kelajakka

Javobin kutib ilhaq.

Umid belaydi nurga

Ko‘ngil bo‘ladi xushvaqt.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
- 2.S.Matchonov,A.Shojalilov,X.G`ulomova,Sh.Sariyev,Z.Dolimov O‘qish kitobi 4-sinf.T.:”Yangiyo‘l poligraf servis”,2017.
3. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism. T.: “Respublika ta’lim markazi”, 2021.